

**MUSTAQIL TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING
ZAMONAVIY USULLARI**

Xalqaro nordik universiteti Chilonzor tumani

Tyutor lavozimi

Abdurasulova Atirgul Miktibayevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lif samaradorligini oshirishda mustaqil ta'limning o'rni va uning ijobiy jihatlari ko'rib o'tilgan. Shuningdek, mazkur ta'limda beriladigan vazifa turlari va o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *davlat ta'lif standarti, o'quv predmetlari, ijodiy fikrlash, amaliy ijodiy mashg'ulotlar, individual yondashuv, tashabbuskorlik ko'nikmalari.*

Yoshlarning bilim va iqtidorini chiqurlashtirish, ularning kelgusida malakali kadrlar bo'lib O'zbekistonni yanada rivojlantirishdagi ishtirokini ta'minlash maqsadida ta'lif jarayonida zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda, shunga javoban bu ishni samarali va amaliyatga joriy etishda natijaviylikka e'tiborni qaratamiz. Ta'lif sohasida bo'layotgan har bir o'zgarish jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir qilishiga shubha yo'q. Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta'lif standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Qaysi sohada bo'lmasin bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish – talaba faoliyatining ta'lif muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o'qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi, mehnatning xarakteri va mazmuniga, insonni hayotga tayyorlashga yuksak talablar qo'yadi. Shunga ko'ra har bir kishini hayotga tarbiyalashda aniq o'zgarishlar qilishi lozim[1]. Har bir o'quvchida zamonaviy ishchi shaxsining sifatlarini shakllantirish uchun maktabning boshlang'ich sinflarida va hatto ilgariroq maktabgacha muassasalarda,

keyinroq maktabdan yuqori sinflardagi tahlim va tarbiyani rivojlantirish, keyinchalik kasb-hunar kollejlarida o'z bilimlarini davom ettirishlari lozim. Butun kuch va qobiliyatlarini siyosiy bilim doiralarini kengaytirish, zamonaviy bilim bilan qurollantirish va jismoniy mehnatni har tomonlama uyg'unlashtira olishga o'rgatishdan iboratdir. Mehnat ta'lifi va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang'ich maktablarda butun ta'lim va tarbiya tizimida hamda barcha o'quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o'rinda mehnat darslari yetakchi rol o'yndaydi. Maktabda muntazam mehnat ta'limining boshlang'ich bosqichi boshlang'ich sinflarda mehnat darslarida va kichik maktab yoshidagi bolalarni qo'lidan keladigan ijtimoiy foydali ishdir. Boshlang'ich maktabdagagi mehnat ta'limining asosiy vazifalari mehnatga axloqiy va ruhiy taylorlash, o'quvchilarni boshlang'ich politexnik bilimlar bilan qurollantirish, mehnatga amaliy taylorashlardan iboratdir.

Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim talabalarda tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, o'quv jarayonida talabalarda tashkilotchilik qobiliyati, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish zamон talabi hisoblanadi. Mustaqil ta'lim talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantiradi. O'z tadqiqotlarini tengdoshlari bilan muhokama qilish orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlanadi. Talabalar fanga tegishli bilimlarni 40-50 foizini bevosita mustaqil o'rganish orqali o'zlashtiradi. Mustaqil ta'lim o'quvchilarga tabaqlashtirilgan topshiriqlar berish imkonini ham beradi.

O'quvchilarning mustaqil o'quv faolligini shakllantirishning yagona usuli, ularning mustaqil o'quv faoliyati bilan shug'ullanishlarini tashkil etish va boshqarish hisoblanadi. O'quvchilarda ijodiy tayyorgarlik jarayonida mustaqil ta'limni tashkil etish uzlusiz va uzviy amalga oshirilmog'i lozim. Bizningcha, bu yo'nalishda yuqori natijaga erishish ta'lim jarayonida, xususan ma'ruza va amaliy ijodiy mashg'ulotlarida o'quvchilarda o'rganilgan o'quv materialini mustahkamlashga qiziqish hosil qilish, o'quv axborotlarni sig'imini darslik va qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil holda o'qish asosida kengaytirishga ishtiyoyq

hosil qilishga asoslanadi. Bo'lajak mutaxassislarning har tomonlama yetuk, bilimli, mustaqil fikrloyoladigan, izlanuvchan kadrlar bo'lib yetishishini ta'minlash, ularni o'z ustida ishlashga yo'naltiruvchi yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi[2].

Mustaqil ta'lim individual yondashuv, akademik tanlovnning xilma-xilligi bilan talabani ko'proq jalgan etadi. Mustaqil izlanish natijasida turli manbalar bilan tanishish talaba dunyoqarashi rivojlanishiga xizmat qiladi. Tashabbuskorlik ko'nikmalari shakllanadi. Shuningdek, mustaqil o'qish muammolar yechimi bo'yicha jamoaviy muhokamalarda yetakchi mavqeni egallash uchun zamin yaratadi. AQSHda talabalar ishlab chiqilgan mustaqil ish natijalari amaliyotda foydalanilganlik darajasi inventarizatsiya qilinadi. Shuningdek, "keyslar to'plami usuli" keng foydalaniladi. Mazkur metod pedagogik bilimlarni o'qituvchi tomonidan qanday qo'llanilishi va mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Ushbu o'qitish usullarini amalga tatbiq etishdan maqsad, talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishdir.

Oliy ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ilmiy tadqiqot universitetlari modeliga o'tish va ilmiy tadqiqot olib borishga e'tibor qaratilgan. AQSH universitetlari hozirgi kunda yirik loyihibarini amalga oshirmoqda. Ular turli fondlar va byudjet tomonidan moliyalashtirilgan bo'lib, turli xil ishlab chiqarish korporatsiyalari bilan yaqindan bog'langan. Germaniya, Yaponiya, Fransiya va boshqa sanoati va intellektual bilimlari rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro samarali aloqadorligi professional ta'lim tizimini ustuvor va foya keltiruvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantirgan. Buyuk Britaniyada esa mustaqil ta'lim tizimidan foydalanib bilim olishga qiziqish 39,7 foizni tashkil etadi. Bu professor o'qituvchiga ham mas'uliyat yuklaydi. Talabani tajribalar o'tkazishga qiziqtiradi. Mustaqil ta'lim samaradorligini oshiruvchi yagona yo'l uning bevosita kasbiy faoliyat bilan bog'lash hisoblanadi, kasbiy faoliyatda uchrashi mumkin bo'lgan muammolarga talabalarni chiniqtirish zarur.

Ammo mustaqil ishni bajarishga zaruriy fundamental adabiyotlar yetishmasligi, o'qituvchilarning mustaqil ish uchun faqat umumiy masalalarni belgilash davom etmoqda. O'quv jarayonida mustaqil ishni bajarish davomida olingan bilim kasbiy ko'nikmalarni mustahkamlash imkonini beradi[3]. O'qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish bilimlarni egallash va mustahkamlash qobiliyatini rivojlantiruvchi ta'lim jarayonining samarali yo`nalishlaridan biridir. SIW maxsus fanlarni o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u talabalarni kerakli adabiyotlar bilan ishlashga undaydi. O'quvchilarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish.

Xulosa o'mida shuni ta'kidlash joizki, ta'lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta'lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishslashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim. Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan texnika taraqqiyotini hayotga tadbiq eta oladigan yetuk malakali kadrlar tayyorlash masalasi turibdi[4]. Maktab ta'limining hozirgi bosqichida o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'sib kelayotgan avlodning tahlim va tarbiyasidagi eng zarur masalalardan biridir. Ayniqsa boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlariga asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan mehnat ta'limi jarayoni o'quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, axloqiy, estetik iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni qo'l mehnati jarayonida bolalar asosan ishlab chiqarish texnologiyalar chiqindilari (qog'oz,karton,sim, yog'och,gaz mol va boshqalar) bilan tabiiy va sun'iy xom ashyolar (maxsus loy,yog'och va plastmassalar, plastilin, yelim va boshqalar) bilan ishslash keyingi sinflarda davom ettirilishi uchun zarur aloqadorlik hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION

1. Muslimova, A.F. O'z-o'zini takomillashtirishga va ijodiy o'zini namoyon qilishga intilishlarni rivojlantirish / A.F. Muslimova // O'rta maxsus kasb ta'limi. - 2010 yil - № 4
2. Zulxumor Shuxradovna Mirzayeva, Voxid Baxromovich Fayziev. O'quvchilarda mustaqil ta'limini tashkil etish yo'llari. volume 2 | ISSUE 5 | 2021
3. Muzaffarjon Mansurov. Mustaqil ta'lim muammolari va o'ziga xos yechimlar. 14.10.2023
4. <http://hm.tiame.uz/oz/article/14-11-5-1>